



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 23-avgust, № 172 (9067)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



SAMMIT O'ZARO STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 22 avgust kuni «Ozərbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston» formatidagi uch tomonlama sammitda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Dastlab “Avaza” milliy turizm zonasining Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning yuzmayuz va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida Turkmaniston yetakchisi davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston – Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro manfaatli hamkorlik barcha yo'nalishda jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 700 million dollarni tashkil etdi. Fevral oyidan boshlab mamlakatlar o'rtasida erkin savdo rejimi amal qilmoqda, poytaxtlarda savdo uylari ishlamoqda. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Joriy yilda “Shovot – Toshovuz” savdo zonasini ishga tushirish bo'yicha birgalikdagi ishlar yakunlanmoqda.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiyalar va Ishbilarmonlar kengashi yig'ilishlari hamda qator madaniy tadbirlarni samarali o'tkazish muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining bo'lajak yettinchi Maslahat uchrashuvi kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdilar. Shu ma'noda, “Ozərbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston” formatidagi muzokaralar muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozərbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-kommunikatsiya, energetika va gumanitar sohalaridagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida Gurbanguli Berdimuhamedovni avgust oyi boshida BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan yana bir bor samimiy tabrikdladi.

O'zbekiston Prezidenti Ozərbayjon yetakchisi Ilhom Aliyevni yaqinda Vashington shahrida Armaniston bilan tinchlik deklaratsiyasi imzolangani bilan ham dildan qutladi.

Davlatimiz rahbari ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qator aniq takliflarni bildirdi.

Uch davlatning ulkan tranzit salohiyatini to'liq ishga solish muhimligi qayd etildi.

Amaldagi va istiqbolli yo'laklarning tutashuvi Xitoyni mamlakatlarimiz hududlari orqali Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bilan bog'laydigan barqaror va samarali transqit'aviy yo'nalishni shakllantirish imkonini berishiga ishonch bildirildi.

Hozirgi kunda Xitoy – O'zbekiston temir yo'li qurilishi boshlangan. Bundan tashqari, yaqinda Pokiston va Afg'oniston bilan Transaf'g'on yo'lagini qurish loyihasi bo'yicha memorandum imzolandi.

Yangi yuk oqimlari, eng avvalo, Ozərbayjon, Turkmaniston va O'zbekiston infratuzilmasidan samarali foydalanishni ta'minlashi qayd etildi.

O'rta marshrutni, shu jumladan, Zangezur yo'lagini rivojlantirish borasidagi rejalar ham qo'llab-quvvatlandi.

Eng muhim masalalarni birgalikda ekspertlar darajasida ishlab chiqishga kirishish taklif qilindi.

Bu – o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirish, shu jumladan, Turkmanboshi va Boku portlarida zamonaviy logistika infratuzilmasini yaratish, kelishilgan tarif siyosatini yuritish, tartib-taomillarni raqamlashtirish va yuklar nazoratini ta'minlash masalalaridir.

O'zbekiston asosiy bozorlarga biznes uchun eng qisqa va manfaatli chiqishni ta'minlash maqsadida yuk tashish tariflarini o'zaro asosda pasaytirishga tayyorligi bildirildi.

Bundan tashqari, sa'y-harakatlarni birlashtirish logistika infratuzilmasini rivojlantirishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan donor davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan pragmatik hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini berishi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Kaspiy dengizi orqali yuklarni tashish uchun o'z parom quvvatlarini yaratishdan manfaatdorligi bildirildi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash maqsadida kooperatsiyani chuqurlashtirish va energiya resurslarini uchinchi mamlakatlarga eksport qilish yo'klarini rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

Bu borada Yevropaga “yashil” energiya yetkazib berishni tashkil etish loyihasi istiqbolli ekani ta'kidlandi.

An'anaviy uglevodorodlar borasida Kaspiy shelfida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va konlarni o'zlashtirish sohasida hamkorlik istiqbollarini o'rganish taklif etildi.

Tovar ayirboshlashni va sanoat kooperatsiyasi ko'lamini tubdan oshirish yana bir ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi. Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda O'zbekistonning Turkmaniston va Ozərbayjon bilan o'zaro savdo hajmi 2 barobar oshdi. Tovar ayirboshlash tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 40 foizga yetdi.

Barqaror savdo-logistika zanjirlarini rivojlantirish, ulgurji-taqsimot markazlarini tashkil etish va yirik savdo tarmoqlariga chiqish, fitosanitariya va karantin talablarini unifikatsiya qilish, mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish, qo'shma elektron platformalarni ishga tushirish va tovar-xomashyo birjalari kooperatsiyasini kengaytirishni nazarda tutadigan kompleks harakatlar rejasini birgalikda tayyorlash taklif qilindi.

Savdo-sanoat palatalari shafeligida ko'rgazma-yarmarka tadbirlari va ishbilamoni uchrashtirishni o'tkazish orqali uch mamlakat hududlarini ushbu jarayonlarga faol jalb etish taklif qilindi.

Gumanitar aloqalarni kengaytirish doirasida mamlakatlarimiz va uchinchi davlatlardan sayyohlar oqimini ko'paytirish, xalqlarimizning boy madaniy merosi musharakligi, an'ana va urf-odatlarini yaqinligini namoyish etish imkonini beradigan turizm va madaniy almashinuvlarning uch tomonlama dasturini qabul qilish taklif etildi.

Yakunda davlatimiz rahbari ilgari surilgan tashabbuslar va erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish uchun “Yo'l xaritasi”ni tayyorlash, shuningdek, asosiy yo'nalishlar bo'yicha vazirlarning qo'shma uchrashuvlari mexanizmini ishga tushirishni taklif qildi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozərbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Qo'shma bayonot qabul qildilar.

Yetakchilar huzurida transport va logistika, kemasozlik va fuqaro aviatsiyasi sohalarida hamkorlik to'g'risida memorandumlar, Tovar-xomashyo birjalari o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim va boshqa hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozərbayjon

Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev muzokaralar yakunida ommaviy axborot vositalari uchun bayonot berdilar.

Prezidentimiz uch mamlakat xalqlari manfaatlari yo'lida strategik sheriklikni rivojlantirish borasidagi qat'iy siyosiy irodani yaqqol namoyon etgan uchrashuvning samarali yakunlarini yuksak baholadi.

Muzokaralarda tranzit yo'laklarini rivojlantirish, jumladan, Turkmanboshi va Boku portlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, zamonaviy logistika infratuzilmasini birgalikda shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlandi.

Milliy transport tizimlari integratsiyasini chuqurlashtirish maqsadida mintaqadagi mavjud va istiqbolli yo'nalishlarni o'zaro bog'lash rejalarini atrofiga muhokama qilindi. O'zbekiston bu borada o'zaro muvofiqlashgan siyosat yuritish tarafdori ekani ta'kidlandi.

Bu, birinchi navbatda, xalqaro bozorlarga chiqishda biznes uchun qulay sharoitlar yaratish va tarif siyosati masalalaridir.

Kaspiy dengizi orqali logistika infratuzilmasi va parom tashuvlarini rivojlantirish loyihalari ustida birgalikda ishlash bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Bundan tashqari, uch mamlakat o'rtasida energetika sohasida – uglevodorod konlarini o'zlashtirish va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini eksport qilish bo'yicha hamkorlik imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash hajmini karrasiga oshirish va sanoat kooperatsiyasi ko'lamini kengaytirish vazifalari muzokaralar kun tartibidan markaziy o'rin egalladi.

Milliy ishlab chiqaruvchilarning sifatli mahsulotlarini o'zaro yetkazib berishni rag'batlantirish choralarini ko'rilishi hamda uch mamlakat hududlarining salohiyatini jalb etgan holda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilishi ta'kidlandi.

Yetakchilar suv resurslaridan oqilona

foydalanish va ekologik tahdidlarga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib oldilar. Bundan tashqari, turizm va madaniy almashinuvlar sohasida qo'shma dastur qabul qilindi.

Qabul qilingan qaror va hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha ishlar vazirlar tomonidan “Yo'l xaritasi” asosida amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida ushbu tarixiy uchrashuv uch mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishga, barqaror savdo, transport va energetika yo'laklarini yaratishga, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilishini alohida ta'kidladi.

Amaliy tashrifning madaniy dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozərbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev birgalikda “Avaza” kongress markazi yonidagi maxsus maydonga tashrif buyurdilar.

Oliy martabali mehmonlarga “Galkinish” milliy ot sporti jamoasi axaltaka zotli tulporlarining chiqishlari namoyish etildi.

Dunyoga mashhur “Galkinish” ot sporti guruhi bu yil Monte-Karloda bo'lib o'tgan 47-xalqaro sirk festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etib, oltin mukofotga sazovor bo'ldi, shuningdek, Istanbulda bo'lib o'tgan Xalqaro etnosport festivalida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Turkman xalqining milliy yetakchisi O'zbekiston xalqiga chuqur hurmat-ehtiram ramzi sifatida davlatimiz rahbariga to'kin-sohinchilik va farovonlik ramzi bo'lgan tuya va bo'taloqni sovg'a qildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrfi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

XALQARO ZAMONAVIY SAN'AT BIYENNALESINI YUQORI SAVIYADA O'TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RIDIDA

O'zbekistonning jahon madaniy xaritasidagi nufuzini yuksaltirish, zamonaviy san'at, tarixiy meros, kreativ iqtisodiyot va turizm uyg'unligini ta'minlash orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shish, shuningdek, YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga va “ljodkor shaharlar tarmog'i” dasturiga kirgan, asrlar davomida ilmfan, me'morchilik, hunarmandchilik va san'at markazi bo'lib kelayotgan ko'hna Buxoro shahrining o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida **qaror qilaman**:

- 2025 yildan boshlab har ikki yilda bir marta **sentyabr – noyabr oylarida Buxoro shahrida xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi** (keyingi o'rinlarda – Biennale) o'tkazib borilsin.
- Birinchi Biennale **2025 yil 5 sentyabr – 20 noyabr** kunlari yuqori saviyada o'tkazilsin.
- Quyidagilar Biennalening **asosiy maqsadlari** etib belgilansin:
 - a) mamlakatimizda zamonaviy va amaliy san'at,

hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash hamda **global madaniy makonga integratsiya qilish**;

- b) kreativ industriyada ta'lim, tadqiqot va kasbiy mahoratni rivojlantirish, yurtimiz vakillarining jahonga mashhur usta-ijodkorlar bilan hamkorligini yo'lga qo'yish orqali **xalqaro darajaga olib chiqish**;
- v) yurtimiz turistik jozibadorligini oshirish, madaniy meros obyektlarini **san'at namoyishi maydonlariga** aylantirish, **muntazam qayta tashrif buyurishga** bo'lgan qiziqishni shakllantirish.

4. Xalqaro zamonaviy san'at biyennalesiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha **tashkiliy qo'mita** (keyingi o'rinlarda – Tashkiliy qo'mita) tuzilsin, shuningdek, uning tarkibi va asosiy vazifalari 1 va 2-lovalarga muvofiq tasdiqlansin.
5. Belgilab qo'yilsinki, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) Tashkiliy qo'mitaning **ishchi organi** hisoblanadi.

(Davomi 2-betda).



MUSTAQILLIK – BEBAHO NE'MAT

O'tayotgan har bir kun, har bir soat bizni muqaddas Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi bayramiga tobora yaqinlashtirmoqda



Yurtimizda ajoyib tarixiy sanalar, bayramlar ko'p, biroq ular orasida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kun xalqimiz tarixi va taqdiri, yorqin kelajagidagi muhim ahamiyati bilan ajralib turadi. Shu bois mamlakatimizda mustaqillik bayrami o'zgacha shukuh bilan, chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayymoi sifatida keng nishonlanadi.

Nuqtai nazar

Chunki asrlar davomida o'zining aqlu zakovati, bunyodkorligi hamda betakror salohiyati bilan dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan, biroq tarix va taqdir taqozosi bilan ma'lum muddat erksizlik iskanjasida kun ko'rgan o'zbek xalqi uchun hurriyatning qadri bebahodir.

Shu kunlarda milliy mustaqilligimizning 34 yilligini ko'tarinki ruh va xursandchilik bilan kutib olish uchun qizg'in tayyorgarlik ishlari boshlanib ketdi. “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan g'oyani o'zida mujassamlagan bayram

tadbirlari bugun biz yagona xalq, yagona millat bo'lib, ko'zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil borayotganimizni namoyon etadi.

Dunyodagi har bir jamiyat, har bir davlatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan, uning yuksalishi uchun xizmat qiladigan g'oyasi, mafkurasi mavjud bo'ladi. Odamlar qaysi bir jamiyatda yashamasin, nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir bir g'oyaga, talimotga asoslanib ish ko'rish va faoliyat yuritishi lozim. G'oyaning, mafkuraning ahamiyati shundaki, u jamiyatning rivojlanishi, olg'a tomon harakatlanishini rag'batlantiradi, millatning barcha a'zolarini umumiy maqsad yo'lida birlashtiradi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

XALQARO ZAMONAVIY SAN’AT BIYENNALESINI YUQORI
SAVIYADA O‘TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

6. Belgilansinki, birinchi Biyennale doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

a) Biyennale o'tkaziladigan **14 ta** madaniy meros obyektini ko'rgazma va tadbirlar, ta'lim va tadqiqot, ijodiyot va ishlab chiqarish jarayonlari uyg'unlashgan **kreativ klasterga** aylantirish;

b) jahonga mashhur usta-ijodkorlar tomonidan **60 tadan ko'p art-obyekt**, shu jumladan, installatsiyalarni yaratish, ulardan Biyennale o'tkaziladigan joyni badiiy bezashda foydalanish va ularning eng munosiblarini **dunyo bo'ylab ko'rgazmalarda namoyish etish**;

v) dunyoga taniqli ijodkor, mutaxassis va oshpazlar ishtirokida keng jamoatchilik uchun **10 haftalik ilmiy-ma'rifiy, madaniy-ko'ngilochar, sayyohlik va gastronomik dasturlarni tashkil etish**;

g) birinchi Biyennale **maxsus katalogi** va o'zbek **milliy taomlari retseptlar kitob-albomini** chop etish, ulardan xalqaro miqyosdagi targ'ibot vositasi va **sovg'alar to'plami** sifatida keng foydalanish;

d) Buxoro Biyennalesi haqida **hujjatli film** yaratish, shuningdek, undan foydalanib mamlakatimizning **sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish**;

j) maxsus ta'lim dasturi asosida **xalqaro darajadagi kuratorlarni** tayyorlash hamda ularning **jahonning yetakchi san'at maydonlarida O'zbekiston nomidan ishtirok etishini** ta'minlash;

z) **30 nafardan** ortiq xalqaro ekspert, kurator va san'atshunoslar ishtirokida **xalqaro akademik simpoziumni** o'tkazish.

7. Quyidagilar:

a) Xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi o'tkaziladigan moddiy madaniy meros **obyektlari** (keyingi o'rinlarda – Biyennale obyektlari) ro'yxati 3-ildavga muvofiq;

b) Xalqaro zamonaviy san'at biyennalesiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni **moliyalashtirish manbalari** 4-ildavga muvofiq tasdiqlansin.

8. Belgilab qo'yilsinki, Biyennale obyektlarida:

a) loyihalashtirish va dizayn asosida obyektlarni **badiiy yoritish** va asrashga doir ishlarni tashkil etish, infratuzilmalarini yaxshilash, shuningdek, **Tasviriy san'at muzeyining yangi ekspozitsiyasini** yaratish choralari ko'riladi.

9. Belgilansinki, Biyennale doirasida 2025 yil 31 dekabrqa qadar Jamg'arma va Madaniy meros agentligi tomonidan shakllantiriladigan ro'yxatlarga asosan va ular belgilagan subyektlar tomonidan import qilinadigan texnika, jihoz, asbob-uskuna, san'at asarlari va ularning qismlari, ashyolar va boshqa tovarlar **bojxona bojidan ozod etiladi**.

10. Vazirlar Mahkamasi uch kun muddatda birinchi

Biyennalega tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejas, moliyalashtirish manbalarini ko'rsatgan holda xarajatlar smetasini tasdiqlasin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 5-ildavga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi raisi G. O. Umerova hamda Buxoro viloyati hokimi B. K. Zaripov belgilansin.

13. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	Sh. MIRZIYOYEV
Toshkent shahri, 2025 yil 21 avgust	

MUSTAQILLIK – BEBAHO NE’MAT

O’tayotgan har bir kun, har bir soat bizni muqaddas Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligi bayramiga tobora yaqinlashtirmoqda

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan asos solingan va O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida dunyo miqyosida tan olinayotgan hozirgi davr mustaqillikni mustahkamlash sari qo'yilgan zalvarli qadamlar davridir. Buning samarasi o'laroq shakllanayotgan barkamol avlodning jahon maydonlaridagi zafarlari esa yangi O'zbekiston qudrati va salohiyatining yorqin misoli bo'lmoqda.



jiddiy islohotlarni boshdan kechirmagan bo'lsin. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakat farovonligi, yurtodshlarimiz tinchligi va xotirjamligi. Ana shu o'zgarishlar samarasi o'laroq ichki ishlar organlarini tubdan isloh etish va faoliyatini qaytadan yo'lga qo'yish bo'yicha huquqiy baza shakllantirildi.

Xususan, ichki ishlar organlari rahbarlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish yuzasidan vakolatli organlari oldida hisobdorligi va ularning xizmat faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari belgilandi.

Mahallalarning yanada xavfsizligini ta'minlash va mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy etish maqsadida Prezidentimizning 2025 yil 3 yanvarda imzolangan

“2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan ilk bor respublika, viloyat, tuman-shahar va mahallalar kesimidagi “yo'l xaritalari” hamda asosiy maqsadli ko'rsatkichlar (*indikatorlar, kamera, domofon, texnik qo'riqlor kabi*) ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida joriy yilning yetti oyida 9 008 ta mahallaning 4 334 tasida yoki 48,1 foizida biorta ham jinoyat sodir etilmadi va bu boradagi umumiy ko'rsatkich 7,2 foizga kamaydi. Shuningdek, mazkur qaror bilan belgilangan kriminogen vaziyati og'ir mahallalarning 39 foizi “yashil” toifada qoldi.

Joriy yilning 5 mart kuni bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida parlamentning idoralalaror ishchi guruhi shakllantirildi. Bugungi kunda mazkur guruh tomonidan mamlakatimizning barcha hududida tuman (shahar) va mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, “mahalla yetilligi” faoliyati va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillar hamda unga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar holati o'rganilib, natijalari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash rahbariyati ishtirokida muhokama qilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlar natijasida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar soni 10,7 foiz kamayishiga erishildi. Eng ahamiyatli, mahallalarda yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 18 foiz, voyaga yetmaganlar jinoyatlari

7,1 foiz, ayollar ishtirokidagi jinoyatlar 17,6 foiz, ilgari sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 9,6 foiz va ishsizlar jinoyatchiligi esa 20,9 foizga kamaydi.

Mardlik, fidoyilik,
haqiqiy vatanparvarlik
maktabi

Har bir davlat o'zining mustaqilligi va tinchligini saqlashda oqilona tashqi siyosat bilan birga o'z harbiy salohiyatiga ham tayanadi. Bugungi xalqaro munosabatlarda har bir mamlakatning rivojlanishi va taraqqiyoti u yerda o'rnatilgan tinchlik-osoyishtalikka bog'liq bo'lib qolmoqda. Qaysiki davlatda notinchlik, ommaviy tartibsizliklar, qurolli mojarolar, harbiy to'qnashuvlar yuz beradigan bo'lsa, shu yurtda iqtisodiyot, sanoat, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi tarmoqlar sezilarli darajada zaiflashadi. Shu bois har bir davlatning xavfsizligi, fuqarolarning tinch va osoyishtalikka hayotini ta'minlashda Qurolli Kuchlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

“ Prezidentimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va Yevropa Ittifoqida do'stlik, o'zaro ishonch va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari dunyo davlatlari liderlari tomonidan bir ovozdan e'tirof etilmoqda. ”

Mamlakatimizda bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlarni tahlil qilgan holda qo'shinlarni tayyorlashning eng maqbul yo'nalishlari va mazmuni belgilanib, Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini tashkil etish, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va javogvarligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga o'tirib bormoqda.

Xususan, yaqinda Qurolli Kuchlar Akademiyasi isloh qilinib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Mudofaa vazirligining barcha harbiy ta'lim muassasalar – 5 ta institut, serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlarini mutaxassislarini tayyorlash markazi institut maqomida mazkur universitet tarkibiga o'tkazildi. Bu markazlashgan vertikal tizim qo'shinlarning javogvar salohiyatini oshirish, dual ta'limni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni amalga o'tirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning neytral va tinchliksevar tashqi siyosati, barcha qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo'lidagi harakatlari mamlakat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida xavfsizlik

sohasidagi hamkorlik aloqalari yanada kengaymoqda.

Milliy armiyamiz har qanday xavf-xatarlarga munosib javob qaytara oladigan mustahkam kuchga ega bo'ldiki, bu avvalo, tinchliksevar xalqimizning yuksak matonati, vatanparvar o'g'lonlarimizning birligi, harbiy xizmatchilarimizning jamiyat hayotidagi faol ishtirokida yaqqol namoyon bo'ldi.

Muxtasar aytganda, milliy armiya-miz tarkibida qisqa yillarda amalga oshirilgan islohotlar va keng ko'lami o'zgarishlar, xalqimizning o'z himoyachilariga ishonchini oshirish bilan birga, armiyamiz nufuzini dunyo reytingida yuqori pog'onalarga ko'tardi.

Favqulodda vaziyatlardan
ogohlantirish – hayot-mamot masalasi

So'nggi yillarda O'zbekistonda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Tabiiy va texnogen ofatlardan aholini muhofaza qilish, favqulodda holatlarga tezkor va muvofiqlashtirilgan javob qaytarish, shuningdek, barcha darajadagi xavf-xatarlarning oldini olishda Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyati mamlakatdagi islohotlardan biridir.

Soha rivojiga qaratilayotgan e'tibor Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining barcha yo'nalishi, xususan, raqamlashtirish jarayonlarida ham o'zining yorqin isbotini topmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda yuz berishi mumkin bo'lgan zilzilalarni monitoring va prognoz qilish yo'nalishida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Kuchli zilziladan ogohlantirish” mobil ilovasi ishlab chiqildi va respublikada kuchli zilzilalardan erta ogohlantirish milliy tizimi kuzatuvlar tarmog'idagi stansiyalar soni 130 taga yetkazildi.

Sel va suv toshqinlari bilan bog'liq tabiiy ofatlar nafaqat insonlar hayotiga xavf soladi, balki davlat iqtisodiyotiga ham ulkan talafotlar olib keladi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan olib borilayotgan profilaktik, tashkiliy-amaliy tadbirlar natijasida favqulodda vaziyatlar 2024 yilda oldingi yildagiga nisbatan 23 foizga kamaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi o'tgan davr ichida mamlakatimiz aholisi va hududlarini yong'inlar va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza

Yaqin kunlarda mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligini nishonlar ekanimiz, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tinchlik-osoyishtalik, xalqimizning farovon hayoti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar har birimizga cheksiz g'urur va mas'uliyat tuyg'usini bag'ishlaydi.

Mustaqillikni asrash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga yorqin meros sifatida qoldirish – har birimizning muqaddas burchimiz.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik masalalari
qo'mitasi raisi.

qilishga qodir bo'lgan mobil va professional xizmatga aylandi.

Ijro intizomini mustahkamlash – samarali faoliyat kafolati

Bojxona organlari mamlakat va aholi xavfsizligini saqlashda asosiy tuzilmalardan sanaladi. So'nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida intizom va mas'uliyatni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bojxona organlarining samarali faoliyat yuritishida ijro intizomi muhim o'rin tutadi. Chunki bojxona organlari faqatgina iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi tuzilma bo'lib qolmay, balki davlat siyosati ijrosining aniq va o'z vaqtida ta'minlanishini kafolatlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Bugungi kunda bojxona xizmati faqat nazorat va tekshiruv funksiyalari bilan cheklanib qolmay, balki jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qiluvchi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi, zamonaviy, ochiq va samarali tuzilma sifatida namoyon bo'lyapti.

Qayd etish lozimki, 2025 yilning yanvar – iyul oylarida tovarlar tashqi savdosi (maxsus eksportdan tashqari) 29 mlrd. dollarga yetdi. Chegara bojxona postlari orqali kesib o'tgan yukli avtotransportlar esa 983,2 mingtani tashkil qilib, 27 foiz oshgan. Shuningdek, chegara bojxona postlarini kesib o'tgan yo'lovchilar soni 34,5 mln. kishi bo'lib, 4 mln. nafar (13 foiz)ga ko'paygan.

“Yashirin iqtisodiyot”ga qarshi kurashish borasida 24 563 ta holatda 731,9 mlrd. so'mlik tovarlar, shu jumladan, 55,2 mlrd. so'm ekvivalentidagi valyuta qimmatliklari, 86,9 mlrd. so'mlik zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanuviga chek qo'yildi.

Yurtodshlarimiz sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash borasida bojxona organlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yetti oyida 1 260,3 kg. giyohvandlik vositalari, 1 055,7 kg. psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalar, 572 dona taqiqlangan material to'xtatib qolindi. Shuningdek, 109 dona qurol, 402 ta o'q-dorining bojxona chegaralari orqali noqonuniy olib o'tilishining oldi olindi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maqolamizda tilga olingan barcha tuzilmalar faoliyatida xalq bilan muloqot eng asosiy mezon sanaladi. Binobarin, bu – yangi davr talabi. Zero, ochiqlik va oshkorlik, muammolarni baralla aytish, fuqarolarning ba'zida og'ir, biroq haqli savol hamda e'tirozlariga yuzma-yuz javob berish taraqqiyotimiz yangi bosqichida hayot tarzimiz va faoliyatimiz mezoniga aylanib ulgirdi.

Eng muhimi, bugun davlat va jamiyatning islohotlar bilan qamrab olinmagan biron-bir jabhasi qolmadi. Ayniqsa, davlat tuzilmalarini xalqqa xizmat qilishdek muqaddas burch va sharafli vazifani ro'yobga chiqarishga safarbar etish borasida ko'rilgan choralar ular faoliyatini ham, maqsadini ham tubdan o'zgartirib yubordi.

Aks sado

BARQAROR
TARAQQIYOT KALITI

“Avaza” milliy turizm zonasining Kongress markazida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamda turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirokida bo'lib o'tgan muzokaralar ikki tomonlama munosabatlardagi o'zaro ishonch va do'stona aloqalarning yuqori darajada ekanligini yana bir bor namoyon etdi.

Prezidentimiz ta'bi bilan aytganda, bugungi dunyoda barqaror taraqqiyotning kaliti – o'zaro ishonch, ochiq muloqot va manfaatlar uyg'unligi hisoblanadi. Turkmaniston bilan munosabatlarni aynan mana shu tamoyillarga asoslangan.

Oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan yirik iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalar, transport va logistika sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, xalqlarimiz o'rtasidagi qardoshlik rishtalari buning yaqqol dalilidir.

Ayni uchrashuv davomida ham ikki qardosh davlat o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan masalalar muhokama markazida bo'ldi. Jumladan, iqtisodiyot, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transport sohalarida amalga oshirilayotgan kooperatsiya loyihalar, joriy yilda 700 mln. AQSh dollariga yetgan tovar ayirboshlash hajmi, “Shovot –

Toshvuz” savdo zonasining ishga tushirilishi kabi amaliy natijalar hamkorligimizning mustahkam asoslarga ega ekanligidan dalolat berishi ta'kidlab o'tildi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash maqsadida kooperatsiyani chuqurlashtirish va energiya resurslarini uchinchi mamlakatlarga eksport qilish yo'laklarini rivojlantirish zarurligi qayd etildi. Mintaqaviy hamkorlik istiqbollari, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining bo'lajak yetinchisi Maslahat uchrashuvi hamda “Ozarbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston” formatidagi muloqotlar yuzasidan olib borilgan fikr almashinuv mintaqamizda barqaror taraqqiyot va o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kobuljon TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy
masalalar qo'mitasi raisi
o'rinbosari.

MANFAATLI
ALOQALARNING
MUHIM BOSQICHI

So'nggi yillarda O'zbekiston, Turkmaniston hamda Ozarbayjon bilan do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish hamda mustahkamlash borasida ko'plab o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishildi, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar barcha yo'nalishda jadal rivojlanib bormoqda.

Prezidentimizning Turkmanistonning “Avaza” sayyohlik zonasida bo'lib o'tgan “Ozarbayjon – Turkmaniston – O'zbekiston” formatidagi uchrashuvdagi ishtiroki va o'tkazilgan muzokaralar muhim ahamiyatga ega.

Sammit doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va gumanitar sohalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasida tovar ayirboshlashni va sanoat kooperatsiyasi ko'lamini tubdan oshirish ustuvor yo'nalish bo'lib, so'nggi yillarda O'zbekistonning Turkmaniston va Ozarbayjon bilan o'zaro savdo hajmi 2 barabar oshdi. Tovar ayirboshlash tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 40 foizga yetdi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qator aniq takliflarni bildirdi. Xususan, uch davlatning ulkan tranzit salohiyatini to'liq ishga solish, amaldagi va istiqbolli yo'laklarning tutashuvi Xitoyni mamlakatlarimiz hududlari orqali Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bilan bog'laydigan barqaror hamda samarali tranzit aviy yo'nalishni shakllantirish imkonini beradi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash maqsadida kooperatsiyani chuqurlashtirish va energiya resurslarini uchinchi mamlakatlarga eksport qilish yo'laklarini rivojlantirish hamda Yevropaga “yashil” energiya yetkazib berish ham katta ahamiyatga ega.

Uchrashuv doirasida qabul qilingan hujjatlar davlatlarimiz o'rtasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga, barcha sohada o'zaro manfaatli sheriklikni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Senator va hayot

BITIRUVCHILARNI ISH BILAN TAʼMINLASH – USTUVOR VAZIFA

Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senati aʼzolari joylarda yoshlar bandligini taʼminlash ishlari bilan tanishmoqda.

Guliston shahrida Senatning Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi Anvar Toʻychiyev hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi raisi, senator Pokiza Ahmedjonova ishtirokida ishchi guruh yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Unda oliy oʻquv yurtlari bitiruvchilari bandligini taʼminlash, yangi ish oʻrinlari yaratish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, oliy oʻquv yurtlari va ish beruvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Maʼlumotlarga koʻra, viloyatda 4 ta oliy taʼlim muassasasi faoliyat yuritisa, shundan 3 ta oliyogʻohni joriy yilda viloyatda doimiy roʻyxatda turgan 3 147 nafar yosh bitirgan. Bundan tashqari, boshqa viloyatlarda joylashgan oliy taʼlim muassasalarini 3 538 yurtdoshimiz tamomlagan.

Taʼkidlanganidek, bugungi kunda oliy taʼlim bitiruvchilari bandligini taʼminlash maqsadida tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlaridan iborat viloyat shtabi faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Yigʻilishda kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan aniq vazifalar belgilab olindi.

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Kobul Tursunov ham Navoiy viloyatidagi xizmat safari doirasida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari, tashkilot, muassasalar rahbarlari va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Muloqot davomida oliy oʻquv yurtlari bitiruvchilari bandligini taʼminlash, yangi ish oʻrinlari yaratish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliyogʻohlar va ish beruvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, viloyatda ikkita davlat va ikkita nodavlat oliy taʼlim muassasasi faoliyat koʻrsatmoqda. Har yili Navoiy viloyatidan 10 mingdan ortiq bitiruvchilar yetishib chiqadi, ularning 45 foizi viloyatdagi, 55 foizi boshqa hududlardagi oliy oʻquv yurtlarini tamomlagan. Bugungi kunda

MAHALLANING ILGʻOR TAJRIBASI EʼTIROFI

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi Bahrom Abdullayev Samarqand viloyatiga xizmat safari doirasida Samarqand shahridagi "Navbogʻchiyon" MFYda boʻldi.

Senator hududda amalga oshirilayotgan ishlar va "mahalla yetittilgi" faoliyati bilan tanishdi va aholi bilan ochiq muloqot oʻtkazdi.

Uchrashuvda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilik tashabbuslari, shuningdek, aholi farovonligini oshirish va joylarda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish doirasida davlat rahbari tomonidan qoʻyilgan vazifalar haqida batafsil maʼlumot berildi.

Shu bilan birga, hududda jamoat xavfsizligini taʼminlash masalalariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Mahallada 250 dan ortiq zamonaviy kuzatuv kameralari oʻrnatilgan boʻlib, ular asosiy nuqtalar – bosh

koʻchalar, taʼlim muassasalari, bolalar maydonchalarini qamrab olgan. Bu huquqbuzarliklarning oldini olish, tartibni saqlash va fuqarolarning osoyishtaligini taʼminlash imkonini beradi.

Mahallada ekologik toza texnologiyalar joriy qilinib, quyosh panellari oʻrnatilgani hamda muqobil energiya manbalaridan faol foydalanilayotgani eʼtirof etildi. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish, yoshlar va xotin-qizlar bilan tizimli ishlash borasidagi tashabbuslar ham ijobi baholandi.

Uchrashuv yakunida mahalladagi ilgʻor tajribani boshqa hududlarda ham keng joriy etish lozimligi taʼkidlandi.

IJTIMOIY DASTURLAR IJROSI – AMALDA

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Oral Ataniyazova Qoraqalpogʻiston Respublikasining Kegeyli tumanida mahalliy Kengash deputatlari, tashkilot va muassasalar rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Muloqot chogʻida Senat yalpi majlislarida qabul qilingan va muhokama etilgan qonunlar mazmun-mohiyati, ularning ijtimoii hayotdagi ahamiyati haqida atroflicha maʼlumot berildi. Yoshlar bandligini taʼminlash, muhim ijtimoii dasturlarni samarali amalga oshirish, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohalaridagi islohotlarga eʼtibor qaratildi.

Kun tartibidan oʻrin olgan muhim masalalardan yana biri – aholi bilan

ochiq muloqotlar oʻtkazilgani boʻldi. Senator mahallalarda boʻlib, fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashdi va ularni qinyayotgan dolzarb muammolarni oʻrgandi.

Shuningdek, belgilangan tartibda fuqarolar murojaatlari qabul qilinib, yoʻllar sifati, sogʻliqni saqlash, kommunal xizmatlar bilan bogʻliq masalalar yuzasidan tegishli idoralar vakillari ishtirokida yechim izlandi.

<Xalq soʻzi>.

OCHIQ MULOQOT – IQTISODIY TRANSFORMATSIYANING SAMARALI VOSITASI

“Bir haqiqatni unutmashimiz lozim: har bir soha, har bir hudud, har bir mahalla – faqat tadbirkor harakat qilganida, ularga quloq tutib, ishonch bildirilganida rivojlanadi, obod boʻladi”.

Mushohada

Davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan boʻlib oʻtgan ochiq muloqotda bu haqda oʻxtalib, aynan ularning ovozi orqali koʻplab masalalar birgalikda muhokama etilib, ijobi yechim topilayotganini, natijada oʻtgan sakkiz yil davomida qanchalik qiyin boʻlmasin, iqtisodiyotimizning koʻplab tarmoqlari yoʻqdan bor qilinganini taʼkidladi.

Darhaqiqat, Prezident bilan tadbirkorlar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri muloqotni davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantirish – bu dunyo tajribasida kamdan-kam kuzatiladigan voqea.

Mamlakat rahbarining tashabbusi bilan oʻtkazib kelinayotgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot esa yangi Oʻzbekiston siyosatining muhim vositasiga aylanib boʻldi. Gap shundaki, Prezident ochiq muloqot orqali iqtisodiy siyosatni yuritishda proaktiv va pragmatik yechimlarni bevosita munozara, mushohada va mulohazalar orqali topmoqda, desak, aslo yangilashmaymiz.

Xususan, biznes muhitini yaxshilash, iqtisodiy rivojlanishni yanada jonlantirish, investitsiyalar jalb qilish, soliq yengilliklari, sanoat va turistik klasterlar uchun mablagʻ ajratish kabi koʻplab muammolar mana shu, erkin ruhda oʻtayotgan muloqotlarda oʻz yechimini topmoqda.

Shu nuqtai nazardan aytganda, tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlarda ilgari surilgan yangi gʻoyalar rivojlanishimiz uchun nechogʻli muhimligini, ular qanday samara berayotganini hamda biznes vakillari kutayotgan imkoniyatlar va yengilliklar real voqeilikka aylanganini yaqqol koʻrsatib berayotgani ayni haqiqatdir.

Tezkor aloqa va erkin fikrlash byurokrtiyani qisqartiradi

Aytish mumkin, har yilgi ochiq muloqot davlat bilan xususiy sektor oʻrtasidagi aloqalarni yanada yaqinlashtiradi. Bu biz uchun odatiy holga aylandi. Yaratilgan yaxshi hamjamiyat oʻrtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish boʻyicha tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi.

HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti hamda Taʼlimni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi oʻrtasida hamkorlik memorandumi va “Yoʻl xaritasi” imzolandi.

Uchrashuv

Yoshlar parlamenti vakillarining markaz direktori oʻrinbosari Yuliya Risyukova bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvi chogʻida taʼlim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, hozirgi zamon talablari va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan oʻquv rejaları, dasturlari hamda oʻquv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilganligi aytili.

Hamkorlik doirasida taʼlim sifatini oshirish, yoshlar tashabbus va loyihalarini qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, dolzarb masalalarga bagʻishlangan konferensiyalar, seminar-treninglar, davra suhbatlari tashkil etish rejalashtirilgani aytili.

Tomonlar yetakchilik, notidlik mahorati va loyiha boshqaruvi boʻyicha onlayn oʻquv kursini yoʻlga qoʻyish yuzasidan fikr almashdi. Yoshlarning ijtimoii faolligini oshirish maqsadida markazning “Kelajak yaratuvchilar” loyihasi doirasida ham qator tadbirlarni yoʻlga qoʻyish zarurligi taʼkidlandi.

Shuningdek, hamkorlik doirasida yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish va virtual makonda xavfsiz taʼlim muhitini yaratish maqsadida kibernetika masalalari boʻyicha onlayn kurs tashkil etilishi koʻzda tutilgan.

<Xalq soʻzi>.



“koʻnglini” topmasdan bitmas edi.

Birgina misol. Ochiq muloqotda tadbirkorlar koʻtargan litsenziyalari, sertifikatlar, yer va infratuzilma masalalari boʻyicha tezkorlik bilan Hukumat qarorlar qabul qilmoqda, nazorat tartiblari soddalashtirilib, ularning soni keskin qisqartirildi. Tadbirkorning boshlangʻich xarajatlarning ortishiga olib kelayotgan byurokratik toʻsiqlar tag-tomiri bilan olib tashlanmoqda.

Har qanday davlatda olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyati davlat va xususiy sektorning ehtiyojlari oʻrtasidagi uygʻunlik bilan bogʻliq. Prezidentning bevosita muloqoti orqali amaliyotdagi mavjud muammolar va ularning yechimi masalalarida vazirlik hamda idoralarning ish rejasi va “yoʻl xaritalari”ga kiritilishi tizimli yoʻlga qoʻyildi. Bu ortiqcha byurokrtiyaning ildiziga bolta urgan yutuqlarimizdan biri, desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Yaratilgan tizim tadbirkorlik bilan bogʻliq ayrim masalalarni vazirlik va idoralar oʻz vakolati doirasida alohida farmon yoki hukumatning qarori qabul qilinishini kutib oʻtirmasdan proaktiv tarzda, yaʼni tezkorlik bilan yechish imkonini bermoqda. Bu siyosiy irodani amaliyotga koʻchirishni tezlashtiradi.

Ishonchga undovchi

«qoʻngʻiroqlar»

Ochiq muloqotning yana bir muhim jihati – tadbirkorlar tomonidan koʻtarilgan masalalar chetdan Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlarni kuzatib turgan hamkorimiz uchun eng ishonchli maʼlumot manbaidir. Yangi Oʻzbekistonning bugungi tadbirkorlari, misol uchun, qoʻshimcha moddiy yordam yoki ularga nisbatan yoʻl qoʻyilayotgan adolatsizliklar, mulk daxlsizligi, reyderlik holatlari toʻgʻrisida emas, balki biznesni rivojlantirishning istiqbolli loyihalarini yuzasidan oʻzlarining aniq taklif va tavsiyalarini bermoqda. Bu “qoʻngʻiroqlar” xalqaro sarmoyadorlarga va mahalliy investorlarga Oʻzbekistonda ochiq hamda adolatli siyosat olib borilayotganining xabarini yetkazmoqda. Biznes muhiti

toʻgʻrisida xabarlar qanchalik haqqoniy boʻlsa, xorijiy sarmoya kirituvchilarda ishonch shunchalik tez paydo boʻladi, mamlakatning investitsiya jozibadorligi oshib boradi.

Shu oʻrinda Oʻzbekiston biznes muhitini yaxshilash borasida jiddiy qadamlar qoʻyganini alohida qayd etish joiz. Soliq va litsenziya tizimini soddalashtirish, raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirishga oid faol tashabbuslar amalda oʻz ifodasini topmoqda. Ishbilarmonlar bilan muloqot orqali kreditlash, yer ajratish, litsenziya talablarini yana soddalashtirish hamda moliyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan progressiv yechimlar taklif qilinmoqda.

Soʻnggi besh yildagi keng koʻlamli islohotlar natijasida Vatanimiz reytingi yaxshilanayotgani, tadbirkorlar muttasil oʻsib borayotgani, yangi biznes loyihalarini amalga oshirishda davlat kafolatlari va

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda bu borada amalga oshirilgan ishlarni yanada chuqurlashtirish mamlakatning innovatsion iqtisodiyot yoʻlidagi muhim vazifasi ekanligiga alohida eʼtibor qaratadi. Chunki jahon iqtisodiyotida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir paytda innovatsiya jarayonlarini qoʻllab-quvvatlash har qanday davlat uchun strategik vazifa hisoblanadi. Masalan, Singapur, Janubiy Koreya va Gruziya misolida koʻrishimiz mumkinki, innovatsiyaga mos muhit yaratish iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga va xorijiy investitsiyalar jalb etishga xizmat qiladi.

Muloqotda Prezident tashabbusi bilan ilgari surilgan gʻoyalar samarali amalga oshirilishi uchun qonunchilik bazasi va huquqiy kafolatlari, intellektual mulk himoyasi, patent tizimi, litsenziyalashda shaffoflik kabi masalalarga alohida eʼtibor qaratildi. Bilamizki, innovatsiyalar oʻziga

qoʻshimcha qulayliklar beradi. Investitsiya platformasini yuritish esa loyihalarini joylashtirish va xorijiy hamda mahalliy investorlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa oʻrnatish imkoniyatini yaratadi.

Shu oʻrinda tadbirkorlikka koʻmak berish va qoʻllab-quvvatlashga oid Prezident taklif etayotgan yondashuvning oʻziga xos quyidagi jihatlarga toʻxtalib oʻtish joiz:

– tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga oid takliflar aniq amaliy natijaga yoʻnaltirilgan. Uchrashuvlarda aytilgan har bir tashabbusning tezkor ijro tizimi orqali amalga oshirilishi yoʻlga qoʻyiladi. Yaʼni qarorga muvofiq, manbalar, mablagʻlar, javobgarlar va ijro muddatlari belgilanadi;

– masalalar va muammolar yechimiga tizimli yondashish belgilanmoqda. Yaʼni u nafaqat bir yoki ikki sohani, balki soliq, kredit, infratuzilma, sertifikatlash va taʼlim kabi tizim elementlari birgalikda amalga oshiriladi va rivojlantiriladi;

– belgilangan vazifalar ijrosi boʻyicha hisobdorlik va ochiqlik prinsipiga qatʼiy amal qilinadi. Ochiq muloqotlar orqali jamoatchilik nazorati va hisobdorlik taʼminlanadi. Bu esa islohotlarning natijadorligini kafolatlaydigan mexanizm, desak, toʻgʻri boʻladi.

Xulosa oʻrnida

Tadbirkorlikni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashda Prezident tashabbusi bilan yoʻlga qoʻyilgan “muloqot – muammo – yechim – natija” tizimining ustun jihati – bu chora-tadbirlarning tadbirkorlar koʻtargan muammoning negiziga, kelib chiqish omillariga qaratilganidir. Belgilangan chora-tadbirlarda isloq qilish mexanizmlari, yaʼni moliyaviy instrumentlar (imtiyozli kreditlar, grantlar) va infratuzilma loyihalarini bir vaqtda qoʻllanilishi natijasida ularning tizimli taʼsiri samarali boʻladi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, Prezident bilan har yili oʻtkaziladigan ochiq muloqot – bu faqat davlat rahbarining maʼruzasi emas, balki davlat siyosatini jonlantiruvchi, xususiy sektorni qoʻllab-quvvatlovchi va iqtisodiy transformatsiyani tezlashtiruvchi muhim vositadir. Zero, yangi tashabbus hamda gʻoyalar negizida tadbirkorlik va xususiy sektorning rivojiga qaratilgan eʼzgu, ustuvor maqsad mujassam. Oʻz navbatida, tadbirkorlarning ochiq muloqot orqali berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanishi ayni muddaodir. Davlat esa bu jarayonni moliyaviy va institutsional jihatdan qoʻllab-quvvatlashni kafolatlaydi.

Sharofiddin NAZAROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ESHITUVDA QANDAY MASALALARGA EʼTIBOR QARATILDI?



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Unda Qishloq xoʻjaligi va Suv xoʻjaligi vazirliklarining hamda Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligining “Hududlarda meva-sabzavot ekin maydonlarini kengaytirishga, dala chetlaridan foydalanishga, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga hamda sohaga ajratilayotgan subsidiyalarni samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi toʻgʻrisida”gi masala yuzasidan axborotni eshitildi.

Eshituvda mutasaddilar tomonidan taqdim etilgan axborotni koʻrib chiqishda vazifalar natijadorligiga alohida eʼtibor qaratildi.

Deputatlar koʻtarilgan masalalar boʻyicha oʻz fikr va mulohazalarini bildirdi. Hududlarda meva-sabzavot maydonlarini kengaytirishda aniq reja asosida ishni tashkil qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishda uskunalar sifatini taʼminlash, barqarorlikni taʼminlash, davlat tomonidan koʻrsatiladigan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash vositalarining taʼsirchanligi va natijadorligini oshirish choralari nafaqat bozorda shundaki, u oilaviy, hududiy va milliy darajadagi mavjud resurslarni faollashtirishdek muhim strategik vazifani amalga oshirishga imkon yaratayapti.

Innovatsiya va qulay muhit uygʻunligi

Innovatsiyaning kelajagi qulay muhit bilan chambarchas bogʻliq. Shu bois davlat rahbari

shuningdek, sohaga ajratilayotgan subsidiyalarni manzilli ishlatilishini alohida nazorat qilib borish zarurligi qayd etildi.

Muhokama davomida oʻzaro maqsadli muloqotlar asosida sohani takomillashtirib borish, mavjud muammolarni yechish choralarni koʻrish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi taʼkidlandi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

>>>

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasining kengaytirilgan yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Unda davlatimiz rahbarining “2030 yilgacha boʻlgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorida belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotlari eshittildi.

Yigʻilishda deputatlar tomonidan ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining ekologik bilimlarini yuksaltirish, bu borada huquqiy bazani mustahkamlash va davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari

oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish boʻyicha qator takliflar ilgari surildi.

Yakunda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

>>>

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasi yigʻilishida “Respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablagʻlaridan foydalanish, shuningdek, rivojlantirish dasturi maqsadli indikatorlarning bajarilish holati toʻgʻrisida”gi masala yuzasidan Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi hamda Transport vazirliklarining hisobotlari eshittildi.

Unda vazirliklar tomonidan maqsadli indikatorlarga erishish borasidagi ijobiy natijalar eʼtirof etildi. Shu bilan birga, ijro jarayoni sust amalga oshirilayotgan maqsadli indikatorlarga taʼsir koʻrsatayotgan omillar mutaxassislar ishtirokida batafsil muhokama qilindi.

Qoʻmita aʼzolari vazirliklar vakillariga kelgusi hisobotlarni oʻz vaqtida va sifatli holda, belgilangan qonuniy talablarga mos ravishda taqdim qilish kerakligini taʼkidlashdi.

Shu bilan birga, maqsadli indikatorlarning ijrosi toʻliq bajarilmagan holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va kelgusida ushbu omillarning oldini olish boʻyicha har bir vazirlik hamda idora tomonidan chuqur tahlillar oʻtkazilishi yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

<Xalq soʻzi>.

Qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan 4 mln. gektardan ziyod yer maydonlarida ekinlarni ekish va sugʻorish jarayonlari raqamlashtiriladi.

YOSHLAR BANDLIGI VA OLIY TA'LIMDAGI
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8 avgust kuni oliy ta'lim bitiruvchilarining bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish, bozor talabiga mos mutaxassislar tayyorlash hamda yoshlarni kafolatli ish bilan ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Munosabat

Keyingi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar ro'y bermog'da. Oxirgi yetti yilda qabul 4,5 barobar oshib, qamrov 42 foizga yetdi. Biroq Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kadrlar tayyorlash tizimi hali ham mehnat bozorining real ehtiyojlariga to'liq mos emas. Masalan, Jizzaxdagi "BYD" zavodida hozir 100 ta bo'sh ish o'rnini mavjud. Shundan chorak qismi – robototexnika va bo'yoqlash, robotlarni dasturlash sohasidagi muhandislar uchun. Zavod to'liq quvvatga o'tgach, malakali mutaxassisga talab yanada oshadi. Shu bois kadrlar tayyorlashda ayni holatlar hisobga olinishi zarur.

To'g'ri, bugun mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi izchil yuksalib bormog'da. Jumladan, oliy o'quv muassasalari soni va talaba qamrovi rekord darajaga yetdi. OTM soni 2024/2025 o'quv yili boshida 222 ta bo'ldi (filiallar bilan), bu 2015 yildagidan 3,2 karra ko'p. Talabalar soni 1,43 million, 2015 yildagidan qariyb 5 baravar oshgan. Ularning 782 ming nafarini ayollar tashkil etadi. Oliygo'hlarning moliyaviy, tashkiliy va akademik mustaqilligi kengaymog'da.

Shunga qaramay, bugungi taraqqiyot shiddati, yangi O'zbekistonni bunyod etishga qaratilgan ezgu maqsadlar ro'yobi oliy ta'limni sohalar talabi darajasiga ko'tarish, kadrlar tayyorlash sifati va yoshlar bandligi qamrovini jadal oshirishni taqozo qilmoqda.

Mutaxassis va korxona
o'rtasidagi ko'pri

So'nggi yillarda 40 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi. Bu iqtisodiyot, huquq, tibbiyot, xorijiy tillar kabi yo'nalishlarda o'z samarasini berdi. Ammo qishloq xo'jaligi, muhandislik, aniq va tabiiy fanlar hanuz yoshlar uchun unchalik jozibador emas. Shu sababli, 25 ta muhandislik oliygo'hlarning hamkor korxonalarida 438 ta kafedra ochildi. Masalan, neft-gaz tarmog'ida ta'lim-ishlab chiqarish klasterlari tashkil etildi. Natijada Buxoro texnika universitetining 2 mingdan ortiq bitiruvchilari o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topdi. Ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish darajasi esa 10 baravar oshdi.

MEHNAT QILGAN
ROHATINI HAM KO'RADI

Konimexlik Tursunqul Abdurazzoqov Yangiqozg'on ovulidan o'n chaqirim uzoqlikdagi Shodmon qudug'i atrofida yashaydi. Qudug' ancha eski bo'lib, o'tgan asr nihoyalarida ko'milib ketgan edi. Yonidagi yangisidan Yangiqozg'on suvi tortilgan. Hikoyamiz qahramoni shu quduqning suvi texnigi – nasosni jadval asosida qo'shib-o'chirib, elektr liniyasining sozligini nazorat qilib turadi. Oylik maoshi ham shunga yarasha.

Omilkorlik

Darvoqye, unga bu yumush aslida ota kasb, harbiy xizmatdan qaytishi bilan shu ishning boshidan tutdi.

– Bilak kucha to'lgan davrlar edi, zerikkandan ko'milib ketgan eski quduqni tozalab, suv chiqardim, – deydi T. Abdurazzoqov. – Tegirmon yurgizmaydiku, lekin ajabtovur chuchuk suv. Tavakkal qilib, keyingi yil qovun ekdim. Ro'zg'orga yetarli hosil oldik. Keyinchalik yoniga tarvuz, qovoq qo'shдик, yangi yerlar o'zlashtirdik, shu taxlit 27 yildan beri dehqonchilik ham qilaman.

Konimexlik bu mirishkorning perazi, mujozlar 3 gektar atrofida. Umuman o'g'it ishlatmagani uchun bo'lsa kerak, mijozlar yo'ldan og'rinmay o'zlari olib ketishadi. Eng muhimi, oilasi yoz ne'matlariga zoriqmaydi. Yaqinda tuman hokimi uning ro'zg'or tutumi va omilkorligini ko'rib, ushbu tajribani boshqa cho'pon otarlarida ham ommalashtirishni maslahat berdi.

Temur ESHBOYEV
(«Xalq so'zi»).

23-24 avgust kunlari Samarqandda triatlon bo'yicha «Challenge Samarkand – 2025» xalqaro musobaqasi bo'lib o'tadi.

Ulardagi xodimlarning asosiy qismi 20 – 30 yoshli mutaxassislardir.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, Estoniya va Janubiy Koreyada axborot texnologiyalari asoslarini maktab chog'idan majburiy tarzda o'qitish kelajakda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Hindiston esa IT outsourcing orqali milliardlab dollarlik eksport hajmiga erishgan bo'lsa, Isroilda startap ekotizimi orqali yuqori texnologiyali ish o'rinlari yaratilgan.

Estoniya axborot texnologiyalaridan foydalanishda dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Ushbu davlatda raqamli xizmatlar va elektron boshqaruv tizimi jahonda eng samarali, deb e'tirof etilgan. Mamlakat aholisining 99 foizi davlat xizmatlaridan onlayn foydalanadi. Soliq deklaratsiyalari, tibbiy yordam, ovoz berish jarayonlari, biznesni ro'yxatga olish – barchasi internet orqali amalga oshiriladi. Jahonning ko'plab tadbirkorlari Estoniya rezidenti bo'lib, onlayn biznes yuritishi mumkin. Bu orqali davlatga qo'shimcha investitsiya va soliq tushumlari kelmoqda.

Yuqorida aytganimizdek, bu maktablarda dasturlash majburiy fan sifatida o'qitilishining samaralaridan biri. Shuningdek, ushbu mamlakatda

bosqichda raqamli ko'nikmalar o'qitiladi. "5G" texnologiyasi ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Shu bois IT va startaplar sohasidagi tadbirkorlarning 60 foizi 35 yoshgacha bo'lganlardir. Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya YAIMning 10 foizini tashkil qiladi. "Samsung", "LG", "Kakao" kabi yirik korporatsiyalar iqtisodiy o'sishning drayveri hisoblanadi.

Yoshlar startaplarini davlat grantlari va venchur investitsiyalar bilan qo'llab-quvvatlash raqamli iqtisodiyot rivojini tezlashtiradi.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari sanoat bilan uyg'un rivojlanganda iqtisodiyotning o'sish sur'ati va samaradorligi sezilarli oshadi.

O'zbekiston sharoitida qator yo'nalishlarda amaliy ishlar olib borish maqsadga muvofiq. Jumladan, "ERP" va "IoT" tizimlarini joriy etish orqali korxona resurslarini real vaqtda hisoblash va optimallashtirish mumkin. Avtomatlashtirilgan liniyalar, robotlar va "3D" printerlardan foydalanish orqali ishlab chiqarish tezligini va mahsulot sifatini oshirish imkoniyati katta. Sun'iy intellekt yordamida talab prognozini aniqlash, mahsulot sifatini nazorat qilish va ishlab chiqarishda

“ O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi yangi bosqichga chiqar ekan, bu nafaqat diplom beradigan, balki bitiruvchisini ish bilan ta'minlaydigan tizim bo'lishi ko'zda tutilgan. Yirik sanoat loyihalari, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, biznesni boshlash uchun kreditlar – bularning barchasi yoshlar bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. ”

oliygo'hlar IT mutaxassislarini xalqaro standartlar asosida tayyorlaydi.

Demak, axborot texnologiyalarini oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga qo'shish, yosh mutaxassislarni amaliy loyihalar asosida tayyorlash va IT xizmatlar eksportini kengaytirish O'zbekistonga ham raqamli iqtisodiyotda yetakchi o'rin egallash imkonini beradi.

Sohada raqamli
integratsiya va texnologik
sanoat

Janubiy Koreya IT sohasini iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirgan. Jumladan, bu yerda "Digital New Deal" dasturi doirasida raqamli infratuzilma va startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun milliardlab dollar sarflanmog'da. Maktabdan universitetgacha barcha

xatolarni kamaytirish mumkin. Sanoat tarmoqlarini raqamli hujumlardan himoya qilish uchun zamonaviy kiberxavfsizlik protokollarini joriy etish lozim. Eng muhimi, oliy ta'lim muassasalarida sanoat uchun maxsus IT yo'nalishlarini ochish, talabalarni amaliyotga va startaplarga jalb qilish sohada malakali mutaxassislar

O'zbekiston uchun ham IT sohasini oliy ta'lim va ishlab chiqarish bilan chuqur integratsiya qilish, yosh mutaxassislarni xalqaro talablarga mos tayyorlash, IT xizmatlari eksportini kengaytirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu nafaqat yoshlar bandligini oshiradi, balki mamlakatning global raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Kelgusi yillarda bu yondashuv natijasida o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlayotgan yoshlar soni keskin oshishi, iqtisodiyot esa zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega kadrlarga boyishi kutilmog'da.

Jamshid SULTONOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti prorektori,
texnika fanlari doktori.

REKLAMA

«Elektron Realtor» MCHJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi PQ-142 sonli qaroriga muvofiq hamda "O'zsanootqurilishbank" ATB bilan tuzilgan 2025 yil 18 iyundagi 18-2025ER sonli shartnomaga asosan "O'zsanootqurilishbank" ATB balansida bo'lgan quyidagi mulklar sotuvga chiqarilmog'da:

- Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, "Qora tepa" MFY, Hayot ko'chasi, 99-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi: 552,2 mln. so'm.
- Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, "Qora tepa" MFY, Hayot ko'chasi, 701-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi: 521,3 mln. so'm.
- Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, "Qora tepa"

MFY, Hayot ko'chasi, 249-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi: 447,5 mln. so'm.

- Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, "Qora tepa" MFY, Hayot ko'chasi, 250-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi: 441,2 mln. so'm.
- Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, "Qora tepa" MFY, Hayot ko'chasi, 310-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi: 432,9 mln. so'm.

Yuqoridako'rsatilgan mulklar yillik 14 foiz ustamabilan boshlang'ich to'lovi 60 foizdan kam bo'lmagan holda 11 oygabo'lib to'lash sharti asosidasotuvgachiqarilmog'da.

Savdogaqo'yilgan mulklar bilan bevositajoyigachiqib tanishish mumkin.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar "e-rieltor.uz" platformasi orqali ariza berishi mumkin.

Call-markaz: +99855-517-22-20, rasmiy sayt: www.e-rieltor.uz

Muhojirlar soni rekord
darajada kamaydi

So'nggi o'n yilliklar ichida ilk bor AQShga kelganlardan ko'ra undan ketganlar ko'proq ekani ma'lum bo'ldi.

Bu haqda "Pew Research Center" hisobotida ta'kidlanadi.

Tashkilot ma'lumotlarida qayd etilishicha, 2024 yil holatiga ko'ra, AQShda 53,3 million muhojir yashagan, bu mamlakat tarixidagi rekord ko'rsatkichdir. Biroq immigratsiya siyosati o'zgargani bois vaziyat o'zgacha tus oldi. Olti oy ichida muhojirlar soni qariyb 1,5 million kishiga kamaydi. Kimdir o'z ixtiyori bilan mamlakatni tark etdi, boshqalari deportatsiya qilindi.

"The New York Times" nashri muxbirining ta'kidlashicha, bundan oldin muhojirlarning bunday sezilarli aniq oqimi faqat o'tgan asrning 30-yillaridagi Buyuk depressiya davrida kuzatilgan. O'sha paytda 400 mingdan 1 milliongacha meksikalik va kelib chiqishi meksikalik bo'lgan amerikaliklar Qo'shma Shtatlarni tark etgan.

Jismoniy jazoyechim
emas

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining hisobotida aytilishicha, dunyoning ko'plab davlatlarida bolalarga nisbatan jismoniy jazoni keng qo'llash holatlari uchraydi. Bu, o'z navbatida, bolalarning sog'lig'i hamda rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazmog'da.

Qayd etilishicha, har yili 1,2 milliardga yaqin 18 yoshgacha bo'lgan bola va o'smir oilada jismoniy jazoga duch keladi. O'tgan bir oy ichida 58 ta davlatda jismoniy jazoga duch kelgan bolalarning 17 foizi uning eng og'ir shakllarga – bosh, yuz yoki quloqqa zarba kabi zo'rvonlikka uchragan.

Eng katta xavf guruhiga nogironligi bo'lgan bolalar, shuningdek, o'zi ham bolaligida jismoniy jazoga uchragan, spirtli ichimlik yoki narkotik iste'mol qiluvchi, depressiyadan aziyat chekayotgan yoki ruhiy kasalliklarga ega otalarning farzandlari kiradi.

Mutaxassislarning fikricha, jismoniy jazo hyech qanday ijobiy natija bermaydi. Kaltaklash bolaning xulqini tuzatmaydi, rivojlanishiga yordam bermaydi va jamiyat uchun foyda keltirmaydi.

Kitob o'rnini hyech bir
gadget bosa olmaydi

Daniya hukumati so'nggi yillarda kuchayib borayotgan kitobxonlik inqirozidan tashvishlanib, fuqarolarni kitob xaridiga undash yo'lini tanladi. Shu maqsadda 25 foizlik kitob savdosi solig'ini bekor qilish rejalashtirilmog'da.

Aytish joizki, Daniyada kitoblarga qo'yilgan 25 foizlik soliq Yevropada eng yuqori bo'lib, Buyuk Britaniya singari kitob mahsulotlariga umuman soliq solmaydigan mamlakatlardan keskin farq qiladi.

Mamlakat madaniyat vaziri Yakob Engel-Shmidt ushbu o'zgarish tufayli do'konlar javonlaridan ko'proq kitoblar sotilishiga umid bildirgan. Reja davlatga yiliga taxminan 44 million yevroga tushadi. Va bu chora mamlakatning madaniy kelajagiga yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Daniyada 15 yoshli o'smirlarning har to'rtinchisi oddiy matnni ham tushunishga qiyinaladi. Bu o'n yil ilgari natijadan to'rt foizga ko'p. Ekspertlar kam kitob o'qilayotganini bolalarning diqqatini o'g'irlayotgan gadgetlar bilan bog'lamoqda.

Yangi qurilish materiali
yaratildi

Yangi yaratilgan qurilish materiali yorug'lik va issiqlik bilan o'zaro ta'sirga kirishib, oddiy sement yoki beton dan farqli ravishda binolarda issiqlik to'planishiga emas, balki ularning sovishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari "Science Advances" ilmiy jurnalida chop etildi. Yangi aralashmani qo'llash kunduzgi jazirama paytida bino ichidagi haroratni 5 darajaga pasaytirish imkonini beradi. Olimlar "foton-strukturalangan sement" deb nomlagan material XXRning Janubi-sharqiy universiteti professori Miao Chanven rahbarligidagi xitoylik va amerikalik materialshunoslar tomonidan yaratilgan. Bu ishlanma an'anaviy sementning asosiy kamchiliklaridan birini bartaraf etishga qaratilgan.

Ammo bu kamchilik sementni tropik va issiq mamlakatlarda qo'llashga to'sqinlik qiladi, chunki uning asosidagi qurilish materiallari quyosh nuri va issiqligining atigi 30 foizini aks ettiradi.

Internet xabarlari asosida
Sharofiddin TO'LAGANOV
(«Xalq so'zi») tayyorladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqoq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teritli hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhif Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.30 Topshirildi — 02.40

1 2 3 4 5 6